

ARAB TILSHUNOSLIGI

*Andijon Davlat chet tillar instituti
Ingliz tili filologiyasi , o'qitish metodikasi va
tarjimashunoslik fakulteti Xitoy tili va Filologiyasi
102-guruh talabasi Umaraliyeva Gulsum
Ilmiy maslahatchi: Zaynobiddinova I.M.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tili tilshunosligining paydo bo'lishi va rivojlanishi Hindistondagi kabi , amaliy ehtiyojlar bilan bog'lanadi. Ya'ni bu davrda eski yodgorliklar va Qur'on tili bilan jonli arab tili (shevalari) orasida katta farqlanish yuzaga keladi . Arab tilsunosligining rivojlanishida asosiy markazlaridan bo'lgan Basra va Kufra shaharlaridagi ilk maktablari va klassik arab tilini tashqi ta'sirlardan saqlash maqsadida arab olimlari til masalalariga bo'lgan qiziqishi asosiy sabablaridan.

Kalit so'zlar: Basra va Kufra maktablari , fikrlar jangi, arab grammatikasi, Qur'on tili, klassik arab tili ,

Аннотация: В статье рассматривается возникновение и развитие арабского языкознания , как и в связи с практическими потребностями . В этот период происходит значительное расхождение между древними памятниками и языком Корана и живым арабским языком (диалектами) . Основными центрами развития арабского языкознания являются ранние школы в городах Басра и Куфра , а также интерес арабских учёных к лингвистическим проблемом с целью сохранения классического арабского языка от внешних влияний.

Ключевые слова: школы Басры и Куфры , борьба идей, арабская грамматика , Коранический язык, классический арабский язык.

Abstract: this article examines the emergence and development of arabic linguistics ,as in India , in connection with practical needs . that is , during this period , a great divergence occurs between the ancients monuments and the language of the Quran and the living arabic language (dialects) . The main centers of the development of arabic linguistics are the early schools in the cities of Basra and Kufra , and the interest of Arab scholars in linguistic issues in order to preserve the classical arabic language from external influences .

Key words: Basra and Kufra schools , battle of ideas, arabic grammar, Quranic language , classical Arabic

Arab tilshunosligi o'z taraqqiyoti davrida hind va yunon tilshunosligi yutuqlariga ,o'z an'alariga tanqidiy va ijobiy yondashgan . Arablar o'z tillarining xususiyatidan kelib chiqqan holda ulardan foydalanganlar . VII – VIII asr arab tilshunosligining dastlabki markazlari Iroqning Basra va Kufa shaharlarida ikkita lisoniy maktab tashkil

topgan bo'lib, ular o'rtasida tilshunoslikning ko'pgina masalalari yuzasidan "fikrlar jangi", qizg'in bahslar, munozaralar olib borilgan.

O'rta asrlarning 'qora' davridan o'tib olgan arablar har sohada rivojlanishga harakat qilishgan va VII-XII asrlar oralig'ida o'z tilshunosligini yaratishga erishdilar. Arab tilshunosligining yaratilishida asosiy sabab bu klassik arab tilini saqlab qolish bo'lgan. Arab xalifaligi islom diniga asoslangan ko'p millatli davlat bo'lib, xalifalikda ish yuritish vositasi va fan tili arab tili hisoblangan. Ko'p millatli bo'lganligi sababli arab tilida turli xil shevalarpaydo bo'lgan va VII asrga kelib og'zaki va yozma nutqdagi arab tilida sezilarli farqlar kelib chiqqan. Ilk qadamlar Basra hamda Kufa shaharlarida qo'yilgan, u yerdagi ikkita lisoniy maktablarida tilshunoslik haqida fikrlar almashilgan va Basra grammatika maktabining vakili Xalil al-Faroxidiy (718-791) arab tiling birinchi lug'atini yaratgan va unga "Kitobul ayn" deb nom bergan. Vol. 73 No. 1 (2025): TADQIQOTLAR jahon ilmiy-metodik jurnali | 73-son | 1-qism

Arab tilshunosligi leksikografiyaga chuqur yo'ndashishganliklarini ushbu asarlardan bilib olsa bo'ladi. Abu-Abayda (770-837) so'z va iboralarning keng qamrovli lug'atini tuzgan; Bog'dodlik Sag'ani (1181-1252) "To'lqinlar toshqini" nomli 20 tomlik lug'at yaratgan; Misrlik ibn Mansur (1232-1311) katta hajmli "Arab tili" lug'atini tuzgan; Sherozlik Feruzobodiy (1329-1414) 60 tomlik lug'at tuzgan va uni "Qomus" deb nomlagan.

Xulosa qilib aytganda, arab tilshunosligini yaratilishi arablar boshqaruvidagi davlatlarga ijobiy ta'sir qilgan. Tilni tartibga solinishi, uni o'rganishni osonlashtiradi va tilni buzilishlardan saqlab qoladi. Arab tilshunosligi yaratilishi 'mukammal yozish uchun puxta ishlangan grammatika kerak bo'ladi' deya ta'riflay olamiz. Vol. 73 No. 1 (2025): TADQIQOTLAR jahon ilmiy-metodik jurnali | 73-son | 1-qism

Adabiyotlar:

1. Usmonov A.-Umumiy tilshunoslik Toshkent, 1972
2. Rasulov R.-Umumiy tilshunoslik Toshkent, 2010
3. Georges Bohas, Jean-Patrick Guillaume, Djamel Kouloughli –The Arabic linguistic tradition London, 1990
4. Azimov.I, Tojiboyeva.M, G'oziyev.A –Eski o'zbek yozuvi Toshkent, 2019